

**"Kievskiy vitaminni zavod" (Ukraina) ochiq aksiyadorlik jamiyatining topshirig'i
bo'yicha Intellektual mulk agentligining MGU 2015 1894-sonli talabnoma bo'yicha
TXXKning 05-sinf tovarlariga nisbatan tovar belgisini ro'yxatga olishni rad etish
to'g'risidagi qaroriga qarshi topshirilgan AMG 2017 001 sonli apellyasiyani ko'rib chiqish
natijalari bo'yicha 2017 yil 27 iyuldagi
APELLYASIYA KENGASHINING QARORI**

I. Apellyasiya topshirgan shaxs va O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi (bundan buyon - Agentlik) o'rtasidagi baxs sababini muhofazasi TXXKning 05-sinf tovarlariga nisbatan so'ralgan MGU 2015 1894-sonli talabnoma bo'yicha "ALDAZOL" so'zli belgini ro'yxatga olishni rad etish to'g'risidagi Agentlik qarorining qonuniyligi tashkil qiladi.

II. Apellyasiya topshirgan shaxs muhofazasi TXXKning 05-sinf tovarlariga nisbatan so'ralgan MGU 2015 1894-sonli talabnoma bo'yicha "ALDAZOL" belgisini ro'yxatga olishni rad etish to'g'risidagi ekspertiza qaroriga qo'shilmadi va talabnoma topshirilgan belgining himoyasi yuzasidan quyidagi dalillarni keltirdi.

"ALDAZOL" belgisiga talabnoma TXXKning 05-sinfiga mansub "Gelmintlarga qarshi preparatlar"ga tegishli tovarlarga nisbatan, ya'ni muayyan farmakoterapevtik guruhga mansub preparatlarga nisbatan tovar belgisi sifatida ro'yxatga olish uchun topshirilgan bo'lib, bu ularning sonini ancha toraytiradi hamda ushbu farmakologik guruhga mansub preparatlarni ekspertiza tomonidan qarshi qo'yilayotgan MGU 15585-sonli guvohnoma bo'yicha TXXKning 05-sinfiga mansub bir turdagi tovarlarga nisbatan "ANDAZOL" tovar belgisi bilan ilgari ro'yxatga olingan mavjud farmasevtik preparatlarning juda katta miqdoridan ajratadi.

Apellyasiya topshirgan shaxs Agentlikning Apellyasiya kengashidan MGU 2015 1894-sonli talabnoma bo'yicha "ALDAZOL" tovar belgisiga TXXKning ro'yxati to'g'rilangan 05-sinfiga mansub tovarlarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi hududida huquqiy muhofaza taqdim etilishini so'raydi.

III. Ekspertiza apellyasiyada keltirilgan masalalarning mohiyati bo'yicha Apellyasiya kengashiga taqdim etgan o'z fikr-mulohazalarida, jumladan, qabul qilingan qarorning haqqoniyligiga dalillar keltirdi.

IV. Ish bo'yicha materiallarni o'rganib va apellyasiya qatnashchilarining chiqishlarini eshitgach, Apellyasiya kengashi apellyasiya topshirgan shaxsning dalillarini asosli deb topadi.

Talabnoma berilgan belgining muhofazaga layoqatligini baholashda "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (bundan buyon - Qonun) va "Tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisini ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnoma tuzish, topshirish va ko'rib chiqish qoidalari" (2009 yil 29 iyulda 1988-son bilan ro'yxatga olingan) (bundan buyon - Qoidalar) huquqiy baza vazifasini o'tadi.

Qonunning 10-moddasi 13-bandi va Qoidalarning 4-bandi n) kichik bandiga muvofiq, ilgari O'zbekiston Respublikasida boshqa shaxs nomiga ro'yxatdan o'tkazilgan yoki ro'yxatdan o'tkazish so'rab talabnoma berilgan, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilmay ham muhofaza qilinadigan yoki shu turdagi tovarlarga nisbatan ancha ilgariroq ustuvorlikka ega bo'lan tovar belgilari bilan adashtirib yuborish darajasida bir xil yoki ularga aynan o'xshash bo'lgan belgilar tovar belgilari sifatida ro'yxatdan o'tkazilmaydi.

Apellyasiya kengashi majlisining borishi va apellyasiya materiallarini o'rganish natijasida MGU 15585-sonli guvohnoma bo'yicha qarshi qo'yilgan "ANDAZOL" tovar belgisining amal qilish muddati

2017 yilning 26 iyunida tugaganligi, amal qilishi uzaytirilmaganligi, shu tufayli u hozirda O'zbekiston hududida huquqiy muhofazaga ega emasligi aniqlandi. Demak MGU 2015 1894-sonli

talabnoma bo'yicha "ALDAZOL" tovar belgisini MGU 15585-sonli guvohnoma bo'yicha "ANDAZOL" tovar belgisiga qarshi qo'yish uchun hech qanday yuridik asos mavjud emas.

Yuqorida bayon qilingan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, Apellyasiya kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zR IMAning MGU 2015 1894-sonli talabnoma bo'yicha "ALDAZOL tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazishni rad etish haqidagi qarorini rad etish talabi qo'yilgan apellyasiya qoniqtirilsin.

2. O'zR IMAning MGU 2015 1894-sonli talabnoma bo'yicha "ALDAZOL tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazishni rad etish haqidagi qarori rad etilsin.

3. MGU 2015 1894-sonli talabnoma bo'yicha "ALDAZOL tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish haqida qaror qabul qilinsin.